

“MOLXONA” ASARIDA KELTIRILGAN KINOYA VA RAMZ TAHLILI

Halimjonova Noila Dilshod qizi

ToshDO`TAU 4-kurs talabasi

xalimjonovanaila@gmail.com +998932722017

Ilmiy rahbar: Nargiza Yusupova

Annotatsiya: *Bu maqola mashhur yozuvchi Jorj Oruellning “Molxona” asarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ijodkor asari orqali jamiyatdagi adolatsiz siyosiy tizim, hokimiyat o‘z manfaati yo‘lida sodda va ilmsiz xalqdan foydalanishi, erkinlik deya yaratilgan inqilobiy g‘oyaga xiyonat qilinishini hayvonlar obrazida ustalik bilan tasvirlab bergan. Asar mutolaasidan so‘ng kitobxon erkinlik, adolat, tenglik g‘oyalari haqida yanada chuqur mulohaza etadi. “Molxona” asari jahon adabiyotida kommunistik tuzumning ramziy tanqidi sifatida katta o‘rin egallaydi. Asar bir qarashga oddiy hayvonlar haqidadek tuyilsa-da, satirika orqali jamiyatdagi qusurlar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *korruptsiya, hayvonlar fermasi, qo‘zg‘alon, qonun-qoida, ochko‘zlik, mustaqil, kamiyat.*

Annotation: *This article is dedicated to the study of George Orwell’s famous work Animal Farm. Through this work, the author masterfully depicts an unjust political system in which those in power exploit the simple and uneducated masses for their own interests, betraying the revolutionary ideals of freedom they once proclaimed. After reading the work, the reader reflects more deeply on the concepts of freedom, justice, and equality. Animal Farm holds an important place in world literature as a symbolic critique of the communist regime. Although at first glance the story may seem to be merely about animals, the author exposes the flaws of society through satire.*

Keywords: *corruption, animal farm, rebellion, rules, greed, independence, society.*

“Molxona”- bu mashhur ingliz yozuvchisi Jorj Oruell tomonidan yozilgan masaldir. Asar hayvonlar haqidagi ertakka o‘xshasa-da jamiyatdagi muammolarni tanqid qiluvchi chuqur ma‘noli asardir. Jorj Oruell asarni ikkinchi jahon urushi davrida yozgan. Shuning uchun ham asarni o‘qigan kitobxon ko‘z oldiga hayvonlardan ko‘ra insonlar obrazi keladi. Asar faqatgina Oruell yashagan davrni tasvirlab qolmaydi, ushbu asar zamon va makon tanlamaydi. Chunki hayotimiz davomida bunday manfaatlar to‘qnashuvi davom etaveradi.

Asar 1945-yilda Ikkinchi Jahon urushi avj olgan “ xalq uchun kurashayotgan adolatli davlat” sifatida bo‘lgan Sovet Ittifoqi hukmronligi davrida nashr etilgan. Oruellning maqsadi esa bu harakatlar ortidagi haqiqatni o‘z asari orqali insonlarga yetkazish edi. “Molxona” asarini o‘qigan har bir o‘zbek kitobxoni ko‘z oldiga xalqimizning Sobiq Sovet

Ittifoqi davridagi hayoti gavdalanadi. Ushbu asar mukammal va farovon hayotni aks ettiruvchi utopik satiralardan farqli tarzda xalq hayotini real o‘xshatishlar bilan tasvirlab bergan. “Molxona” asari siyosiy va ijtimoiy hayot haqida ogohlikka undash vazifasini bajaradi.

Asardagi har bir hayvon ma’lum bir ramziy obraz bo‘lib keladi. Asarni diqqat bilan o‘qigan kitobxon yozuvchi o‘z zamonining siyosiy voqealarini ochiqchasiga tanqid qilganini anglab yetadi. Oruell birgina sovet tizimini emas, balki totalitarizmning qanchalik ayanchli oqibatlariga sabab bo‘lishini yoritib bergan.

Endi esa “Molxona” asaridagi obrazlarni tahlil qilib o‘tamiz.

1. Hayvonobod- Sovet ittifoqi yoki har qanday totalitar davlat ramzini bildiradi.
2. Mayor(cho‘chqa)- inqilobiy g‘oyalar muallifi. Xalqni oldinga undovchi yetakchi.
3. Napoleon (cho‘chqa)- asosiy salbiy qahramon, totalitar rahbar. Xalq mehnatdan o‘z manfaati yo‘lida foydalanadi.
4. Snoubol-inqilobchi, halol yetakchi. Erkinlik uchun jonini berishga tayyor obraz. Kuch bilan emas aql bilan ishlashni afzal ko‘radi.
5. Qichqiroq(cho‘chqa)- propaganda tarqatuvchi, Napoleonning xizmatchisi. Xalqni aldov orqali boshqaradi.
6. Boksyor(ot)- mehnatkash, sodda xalq timsoli
7. Klover(ot)- mehribon on timsoli. Vijdonli va halol.
8. Benjamin(eshak)-aqli lekin sukut saqlaydi. Haqiqatni anglaydi lekin aralshmaydi.
9. Insonlar(qo‘shni fermerlar)- boshqa davlatlar ramzi.

Kichik hajmli bo‘lsa-da, o‘zida davrning barcha og‘riqli muammolarini qamrab olgan bu asarni e’tirof etmaslikning imkoni yo‘q. Mayor obraziga to‘xtalsak, uni ayni paytda jadidlarga qiyoslasak bo‘ladi. Mayor o‘limidan oldin fermadagi hayvonlarga ularning kelajagi yo‘qligini, insonlar qo‘lida qullikda yashashini tushuntirib ketadi. U ferma xalqini uyg‘onishga, atrofidagi nohaqliklarini anglashga, o‘z haq-huquqlarini tanishga undaydi. Mayor hayvonlarga erkinlik ramzi sifatida ozodlik qo‘shig‘ini yod oldiradi, qolganlarni ham kuylashga undaydi. Ozodlik motivi vazifasini bajaruvchi bu erkinlik qo‘shig‘i hayvonlarga kuch baxsh etib, ularni ozodlik uchun birlashtirdi. Napoleon obrazi esa o‘z manfaatini o‘ylaydigan totalitar rahbardir. Adabiyotshunos tadqiqotchi Nasrulloh Mambrol o‘z maqolasida “Bu hayvonlar haqidagi masal — totalitarizmni qattiq tanqid qiluvchi keskin satiradir(Mambrol ,2025). Ayniqsa, Oruell Sovet Ittifoqining kommunizm shaklini faqatgina politsiya davlati mafkurasi sifatida ko‘rsatadi” deya qayd etadi. Nasrulloh Mmbrol bejiz “Molxona” asarini keskin satira deb atamadi. Uning fikricha, Jorj Oruell bu asarni yozishdan ko‘zlagan maqsadi xalq ustidan cheksiz hokimiyat o‘rnatadigan siyosiy tizimlarni tanqid qilishdir. Sovet ittifoqi joriy etgan kommunizm insonlar manfaati, ularning farovon

hayoti xizmat qilmagan, balki kuchli nazorat, qo‘rqitish va majburlash yo‘lida xizmat qilgan.

“Molxona” asarida Jorj Oruell kinoya va allegoriya usullaridan ustalik bilan foydalangan. Asarda “ular insonlardan qutilib, yana o‘zlarining ichidan chiqqan “insonsimon” zolimlarga aylandilar” jumlasini orqali yozuvchi hayvonlarning insonlar adolatsizligiga qarshi chiqib, o‘zlari ham yangi adolatsiz tuzum yaratganlarini juda ta‘sirli kinoya tarzida kitobxonga yetkazadi. Shuningdek, insonlarga nafrati cheksiz bo‘lgan cho‘chqalarning keyinchalik insonlardek yurishi, kiyinishi, stolda o‘tirib vino ichishi tasviri ham keltirilgan. Oruell bu orqali hokimiyat, mol-dunyo, manfaat inson tabiatini qanchalik o‘zgartira olishini ko‘rsatib bergan. Napoleon dastlab odamlar bilan hech qanday aloqa qilmaslik haqida qonun chiqaradi, lekin uning o‘zi “tinchlik va do‘stlik” savdo aloqalarini boshlaydi. U “dushman” deb e‘lon qilgan odamlar bilan bir stolda o‘tirib karta o‘ynaydi, hatto, ichkilik ichadi. Ammo “do‘stlik” aloqalari hayvonlarga hech qanday foyda keltirmaydi. Yozuvchi bu orqali hokimiyat siyosatining naqadar adolatsiz va ikkiyuzlamachi ekanini ko‘rsatib beradi.

Asardagi eng achinarli holat bu shamol tegirmoni qurilishidir. Chunki Boksyor kabi halol, mehnatkash xalq shu sababli halok bo‘ldi. Boksyorning “Napoleon doimo haq” degan gapini ham kuchli itoat va targ‘ibot ta‘sirini bildiradi. U qanchalik aqlli, mehnatkash bo‘lmasin, siyosatni tushunmaydi. Bu obraz totalitar hukumatning xalqni qattiq va ayovsiz nazoratiga ishora qiladi. Squealarning “Sut va olmalar hayvonlarning sog‘ligi uchun kerak” degan gapida ham Oruell sodda xalqning mehnati evaziga topilgan ozuqani hokimiyat manipulyatsiya va propaganda orqali olib qo‘yishini ta‘sirli kinoya tarzida yetkazadi.

Adabiyotshunos tadqiqotchi Erik Jaccard o‘z maqolasida Oruellning “Molxona” asariga chuqur tahlil qiladi. Erik Jaccard Oruell asarini G‘arbda ham, Sharqda ham bahs-munozaraga boy bo‘lganini ta‘kidlaydi. Chunki u kommunizmni tanqid qilgan bo‘lsa ham, hech qachon kapitalizmni qo‘llab quvvatlamagan. Jaccard “Oruell o‘z asarida yolg‘iz sovet tizimini emas, inson erkinligiga tahdid soluvchi har qanday hokimiyatni tanqid qilish uchun yozgan.” deya ta‘kidlaydi (Jaccard, 2018, 3-17bet). Mana necha yillar o‘tsa ham, asar o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. U shunday yozadi “Oruellning kinoyasi kuchli, chunki u bevosita aytmaydi-u o‘quvchini o‘zi tushunishga majbur qiladi”. Chindan ham, Oruell asarning hech qayerida o‘z fikrlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yozmaydi, turli ramzlar, kuchli kinoyalar orqali yetkazadi. Asar mutolaasiga kirishgan har bir kitobxon uni shunchaki o‘qimaydi, balki mulohaza va tahlil qilib tushunishga harakat qiladi.

Jorj Oruell hayot bilan adabiyotni birgalikda olib borgan. Uning yozganlarida real hayot oynadek aks etadi, yolg‘on ertaklar bilan o‘quvchiko‘zini bo‘yamaydi. “Molxona” asari ertakdek tuyilsa-da, yozuvchi kinoya yordamida siyosiy tanqidni erkin ifodalay oladi. U bilvosita, ya‘ni hayvonlar badiiy timsolida o‘z fikrlarini yozadi. Ingiliz adabiyotida Oruell

halollik va to‘g‘rilikni o‘ziga asosiy burch deb bilgan ijodkor edi. U haqiqat va aniqlikni yozish talabi emas, balki axloqiy burchi sifatida ko‘radi. Shuning uchun ham uning asarlarida oldi-qochdi gaplar, ortiqcha metaforalarga duch kelmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asadov, M.T. 2021. “Fransuz-o‘zbek tarjimachiligi istiqbollari”. O‘zbekiston: til va madaniyat 1 (3): 125-134.
- 2.Mambrol, Nasrulloh. 2025. “Jorj Oruellning ‘Molxona’ asari tahlili”. 1–8-betlar. Literary Theory and Criticism nashri.
- 3.Jaccard, Éric. 2018. “His Fable, Right or Left: Orwell, Animal Farm, and the Politics of Critical Reception”. 3–17-betlar. Salem Press nashriyoti.
- 4.Hitchens, Kristofer. 2002. Nima uchun Oruell muhim? 1–150-betlar. Basic Books nashriyoti.
- 5.Blum, Garold. 2009. Jorj Oruell: Molxona. Tanqidiy talqinlar. 1–200-betlar. Chelsea House nashriyoti.